



DOROTI L. SEYERS DETEKTIV ASARLARIDA “ADOLATLI O‘YIN” (FAIR PLAY) POETIKASI

Raximova Nilufar G‘iyosovna

PhD student, Department of English

Literary Studies and Translation,

Bukhara State University

n.g.raximova@buxdu.uz +998905136773

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Doroti L. Seyers detektiv asarlarida “fair play” tamoyilining poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Klassik detektiv janrining zaruriy prinsiplaridan biri hisoblangan ushbu tamoyil yozuvchining “Whose Body?” (1923), “Strong Poison” (1930) va “Gaudy Night” (1935) romanlari misolida o‘rganiladi. Tadqiqotda Seyers asar syujetini qurishda o‘quvchi va detektiv o‘rtasidagi intellektual tenglikni qanday saqlashi, dalillarni bosqichma-bosqich ochib borishi hamda “adolatli o‘yin” tamoyilini nafaqat kompozitsion usul, balki axloqiy-estetik mezon darajasiga ko‘targani yoritiladi. Shuningdek, Ronald Knox va S. S. Van Dine tomonidan ishlab chiqilgan klassik detektiv qoidalar bilan Seyers poetikasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: adolatli o‘yin, klassik detektiv, poetika, iz, deduksiya, lord Peter Uimzi

Asosiy qism

XX asr o‘rtalarida ingliz detektiv romani o‘zining rivojlanish bosqichiga yetarkan, uning estetik asosini belgilovchi tamoyillardan biri “fair play” prinsipi bo‘ldi. Mazkur tamoyilga ko‘ra, detektiv va o‘quvchi bir xil axborot maydonida harakat qilishi, jinoyatni ochishga xizmat qiluvchi muhim dalillar matn davomida yashirilmasdan taqdim etilishi lozim. Detektiv asar muallifi



o'quvchini sun'iy ravishda aldashi emas, balki uning mantiqiy tafakkurini sinovdan o'tkazishi lozim. Shu boisdan "adolatli o'yin" detektiv roman poetikasining markaziy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Ronald Knox o'zining mashhur "**Ten Commandments of Detective Fiction**" (1929) asarida detektiv yozuvchi kitobxonga nisbatan halol bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Knox fikricha, muallif jinoyat yechimini ta'minlovchi asosiy dalillarni yashirib qo'yishga yoki finalda ilgari tilga olinmagan yangi faktlarni kiritishga haqli emas.[Knox, R. 1929] Ushbu nazariya S. S. Van Dine detektiv roman uchun ishlab chiqqan yigirma qoidasi bilan hamohang bo'lib, bunda ham o'quvchi detektiv bilan teng imkoniyatga ega bo'lishi lozimligi qayd etiladi.[Van Dine, S. S. 1928]

Doroti L. Seyers aynan mana shu an'anani o'z prinsipiga aylantirgan yozuvchilardan biridir. Shunga qaramay, uning romanlarida "fair play" oddiy qoidalarga rioya qilish bilangina cheklanmaydi. Yozuvchi ushbu tamoyilni psixologik motivatsiya, xarakterlar tizimi va axloqiy tanlovlar bilan uyg'unlashtirib, uni yanada murakkab poetik hodisaga aylantiradi.

Buni eng avvalo *Whose Body?* romanida kuzatish mumkin. Asar boshidayoq sirli jasadning me'mor Alfred Tipps vannasidan topilishi kitobxon e'tiborini markaziy jumboqqa qaratadi. Shu bilan bir vaqtda moliyachi Sir Ruben Levining g'oyib bo'lishi haqidagi parallel voqea ham kiritiladi. Bir qarashda mazkur ikki hodisa bir-biriga bog'liq ko'rinmasa-da, muallif ular orasidagi uzviylikni darhol ochmaydi. Muhimi shundaki, o'quvchidan hech qanday muhim ma'lumot yashirilmaydi. Lord Peter Uimzi ko'rayotgan barcha dalillar – jasadning kiyimi, pensne, soqolning sun'iyliги, shifokorlarning xulosalari bir vaqtning o'zida kitobxonga ham oshkor etiladi. *"Not a hair on his head is ruffled—the hair has been cut so recently that there are quite a number of little short hairs stuck on his neck and the sides of the bath—and he has shaved so recently that there is a line of dried soap on his cheek—"*



[Sayers,1923] Shu sababli ham kitobxon detektiv bilan birgalikda taxmin yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Roman davomida muallif ko'plab chalg'ituvchi (**red herring**) usullaridan foydalanadi. Masalan, doktor Freke faoliyati, Sir Ruben Levining bedarak yo'qolishi hamda noma'lum jasadning shaxsi dastlab bir-biriga zid yo'nalishlarda rivojlanayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq bu chalg'ituvchi elementlar ham fair play tamoyilini buzmaydi, chunki ularning barchasi matnda ochiq berilgan va keyinchalik mantiqiy izohini topadi. Demak, Seyers o'quvchisini aldash emas, balki uning e'tiborini noto'g'ri ehtimollar tomon vaqtincha burish orqali intellektual o'yin yaratadi.

Ingliz yozuvchisi Julian Symonsning ta'kidlashicha, Doroti L. Seyers klassik detektiv maktabining eng muhim yutuqlaridan biri sifatida "jinoyatni mantiqiy konstruktsiya darajasiga olib chiqdi". [Symons,J.1992] Darhaqiqat, "Whose Body?" romanida har bir dalil keyingi deduksiya uchun tayanch vazifasini bajaradi. Final yechim o'quvchi uchun kutilmagan bo'lsa-da, u oldindan berilgan faktlarning tabiiy natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Fair play tamoyilining yanada mukammal ko'rinishi *Strong Poison* romanida kuzatiladi. Ushbu asarda Harriet Veyn sobiq sevgilisi Filip Boysni zaharlashda ayblanadi. Jinoyatning asosiy muammosi dalillarning ko'pligi emas, balki ularning turlicha talqin qilinishidadir. Peter Uimzi yangi faktlarni "yaratmaydi"; aksincha, mavjud dalillarni qayta tahlil qiladi. Masalan, zaharlangan qahva, arsenikning xarid qilinishi, Harrietning Boys bilan munosabatlari, guvohlarning ko'rsatmalari va Urquhartning harakatlari roman davomida bosqichma-bosqich ochib boriladi. Seyers muhim hujjat yoki guvohni final uchun yashirib qo'ymaydi. Aksincha, ko'plab mayda detallar dastlab ahamiyatsiz ko'rinsa-da, keyinchalik ularning semantik yuklamasi o'zgaradi. Bu esa adolatli o'yin tamoyilining eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi.



John G. Kavelti klassik detektiv roman mohiyatini "o'quvchi va detektiv o'rtasidagi intellektual musobaqa" sifatida izohlaydi.[Cawelti,J.G. 1976] Aynan shu jihat "Strong Poison"da ham yaqqol ko'rinadi. O'quvchi jinoyatni ochishda Lord Peter bilan teng darajada kuzatadi, biroq ayrim detallar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni vaqtida anglay olmaydi. Natijada so'nggi yechim sun'iy emas, balki tabiiy intellektual xulosa sifatida qabul qilinadi.

Seyers poetikasining o'ziga xos jihati shundaki, u **fair play** tamoyilini faqat syujet qurish vositasi sifatida emas, balki detektivning axloqiy mas'uliyati bilan ham bog'laydi. Lord Peter Uimzi jinoyatni ochishni shunchaki intellektual mashq deb bilmaydi. Ayniqsa, "*Strong Poison*" romanida Harriet Veynning taqdiri uning shaxsiy hayoti bilan chambarchas tutashadi. Biroq muallif bu hissiy munosabatni tergov jarayoniga ustun qo'ymaydi. Uimzi Harrietning aybsizligiga ishonadi, ammo aybsizlikni faqat mantiqiy va huquqiy dalillar orqali isbotlashga harakat qiladi. Natijada fair play nafaqat o'quvchiga, balki asar qahramonlariga nisbatan ham adolat tamoyili sifatida namoyon bo'ladi.

Seyersning fair play poetikasida ishora (**clue**) tizimi alohida ahamiyatga ega. Klassik detektivlarda clue ko'pincha moddiy dalillar bilan bog'lansa, Seyers romanlarida lingvistik, psixologik va ijtimoiy belgilar ham muhim informatsion birlik vazifasini bajaradi. "*Whose Body?*" romanida jasadning tashqi ko'rinishi, kiyim detallaridagi nomuvofiqlik va tibbiy xulosalar asosiy clue bo'lsa, "*Strong Poison*"da guvohlarning nutqi, Harrietning xulq-atvori va Urquhartning o'zini tutishi ham deduktiv jarayonning muhim komponentlariga aylanadi. Demak, yozuvchi dalil tushunchasini kengaytiradi va uni faqat predmetlar bilan cheklab qo'ymaydi.

Shuningdek, Seyers chalg'ituvchi faktlar (**red herring**) usulidan ham mohirona foydalanadi. Biroq bu chalg'ituvchi elementlar hech qachon o'quvchini aldash maqsadiga xizmat qilmaydi. Masalan, "*Whose Body?*" romanida doktor Freke va Sir Ruben Levi bilan bog'liq voqealar dastlab



markaziy sirning turli yo'nalishlari sifatida ko'rinadi. O'quvchi ushbu ehtimollarning har birini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyinchalik ularning haqiqiy funksiyasi ochilganda, ilgari berilgan barcha ma'lumotlar o'z mantiqiy izohini topadi. Shu sababli yechim "kutilmagan", ammo "asossiz" emas.

Tzvetan Todorov detektiv roman tuzilishini "jinoyat tarixi" va "tergov tarixi"ning o'zaro munosabati sifatida tavsiflaydi.[Todorov,T. 1977.] Seyers romanlarida aynan tergov tarixi fair play tamoyili asosida quriladi. O'quvchi jinoyat sodir bo'lgan paytni bevosita kuzatmaydi, biroq tergov davomida topilgan barcha faktlarni detektiv bilan birgalikda tahlil qiladi. Shu jihatdan Seyers klassik detektivning asosiy poetik talabini to'liq saqlab qoladi. Bundan tashqari, yozuvchi o'z qahramoni Lord Peter Uimzini "hamma narsani biluvchi detektiv" sifatida tasvirlamaydi. U ko'pincha xato qiladi, noto'g'ri taxminlarni ilgari suradi yoki yangi dalillar sababli avvalgi xulosalarini qayta ko'rib chiqadi. Bu esa o'quvchi bilan detektiv o'rtasidagi intellektual masofani qisqartiradi. Natijada yechim "mo'jizaviy topilma" emas, balki izchil tahlil natijasi sifatida qabul qilinadi. Fair playning eng muhim belgisi ham aynan shunda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Doroti L. Seyers klassik detektiv adabiyotining fair play an'anasini saqlab qolgan holda, uni yangi poetik mazmun bilan boyitdi. Uning romanlarida kitobxon detektiv bilan teng huquqli ishtirokchiga aylanadi, barcha muhim dalillar matn davomida ochiq taqdim etiladi va yakuniy yechim ilgari berilgan faktlarning mantiqiy natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, yozuvchi fair playni faqat syujet qurish qoidasi emas, balki haqiqat, adolat va axloqiy mas'uliyatni ifodalovchi estetik tamoyil darajasiga ko'taradi. Aynan shu xususiyat Seyers detektiv romanlarini klassik ingliz detektiv maktabining eng mukammal namunalaridan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



1. Cawelti, J. G. *Adventure, Mystery, and Romance: Formula Stories as Art and Popular Culture*. Chicago: The University of Chicago Press, 1976.80-105 bb.
2. Knox, R. *The Ten Commandments of Detective Fiction*. In *The Best Detective Stories of the Year 1928*. London: Faber & Gwyer, 1929.
3. Sayers, D. L. *Whose Body?* London: Victor Gollancz, 1923. 21 b
4. Sayers, D. L. *Strong Poison*. London: Victor Gollancz, 1930.
5. Symons, J. *Bloody Murder: From the Detective Story to the Crime Novel*. London: Pan Books, 1992, 86-92bb
6. Todorov, T. *The Poetics of Prose*. Ithaca: Cornell University Press, 1977. 42-52bb
7. Van Dine, S. S. "Twenty Rules for Writing Detective Stories." *The American Magazine*, 1928. 106(5), 10–15,